

**XURSHID DAVRON DRAMMATURGIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI  
("ALG'UL" DRAMASI MISOLIDA)**

**Niyazmetova Gulasal**

*Urganch davlat universiteti*

*Adabiyotshunoslik: o'zbek tili va adabiyoti fakulteti*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada iste'dodli shoir Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasi tahlilga tortilib, uning badiiy mahorat va uslub nuqtai nazaridan yuksak asar ekanligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy jihatdan dallilangan.*

**Kalit So'Zlar:** *drama, tragediya, alg'ul, plastik obraz, subyekt.*

Taniqli adabiyotshunos Dilmurod Quronov rahbarligida yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" asarida drama "Dramaning tasvir predmeti harakat, u Arastu ta'rificha, "barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan, faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi". Drama obyektning plastik obrazini yaratadi, unda subyekt-ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi" tarzida ta'riflanadi.

Drama yaratish uchun uning muallifidan davrning dolzarb masalalarini ixcham shaklda mohirlik bilan ifodalash, dramatik harakatni butun asar davomida qizil ip kabi o'tkazish, qiziqarli, o'tkir voqealarni topish, kuchli konfliktlarni yaratish, puxta xarakterlar zaminida paydo bo'ladigan chuqur ichki kechinmalarni berish, monolog va diologlarni bir-biriga mantiqan uzviy bog'laydigan tilni ishlash talab qilinadi.

"Drama faqat sahnada yashaydi. U holda u tana bo'lmagan ruh kabidir", -deb yozgan edi Gogol. Darhaqiqat, dramaturg tomoshabinga hech narsani tushuntirmasdan, qahramonlarning qilmishlarini bayon qilmasdan voqealarga shunday harakat berib yuboradiki, shundan tomoshabinga hamma narsa ayon bo'lganday tuyuladi. Kelgusi voqealar oqimiga nazar tashlay biladi, ularni hayajon bilan kuzatadi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan asar tarixiy drama ("Alg'ul" yoxud "Mirzo Ulug'bek") bo'lib, dramatik turning tragediya janrida yaratilgan. Ma'lumki, dramalarda dramatik vaziyat va konflikt masalalari hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Negaki, tarixiy asarda kechadigan voqealarni butun murakkabligicha qalamga olish juda mushkul ishlardan biridir. Shu bois, dramaturglarimiz o'tgan zamon, masalan mamlakatimiz tarixiga oid jihatlarni umumlashtirishga harakat qilar ekan, bir nechta xususiyatlarni birlashtirishga urinadi. Ayniqsa, tarixning bor qiyofasini tarixiy haqiqatga putur yetkazmasdan

badiiylik darajasiga ko'tarib chiqadi. Keyin ushbu masalalarni teranroq tahlillab ko'radi.

Xurshid Davronning "Alg'ul" tarixiy dramasi asosiy qahramoni Mirzo Ulug'bek bo'lib, shu bilan birga Abdulatif Mirzo, Abdulaziz Mirzo, Ali Qushchi, Xoja Burhoniddin, Mironshoh qavchin kabi tarixiy shaxslar ham keltiriladi. Dramadagi voqealar 1449-yilning kuzida, bir kun davomida bo'lib o'tadi. Dramada siyosiy vaziyat aks ettirilishi bilan birga hiyonat va razolat, aldov va ko'z bo'yamachilik, turli xil fişq-u fujur kabi chirkin illatlar quyuq bo'yoqlarda aks ettirilishi natijasida tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi qabarib ko'rinadi.

Adib dramani nomlashida ham qandaydir ramziylik mavjudday. Ulug'bekning fojeali o'lim topishida, yulduzlardan biri ya'ni "Alg'ul" shunday bashorat qilgan. Adib mana shu yo'l bilan ham o'zigacha yozilgan mavjud tarixiy dramalardagi an'anaviy nomlanishdan ham qochgandek bo'ladi. Alg'ul bevosita qahramon xarakteri va qiziqishlarini ochib berishga va u haqda muayyan tasavvur hosil qilish uchun yordam beradi. Bu holatni drama matnidagi Ulug'bek va Ali Qushchi diologida yana ham teranroq his qilishimiz mumkin:

"Ulug'bek: Iblisning ko'zlari chaq nab turgan mana shunday subhi azonda "Segoh"ni tinglagim keladi. To'yjon xonish qilgan "Segoh"ga quloq tutib o'tirgan kezlarim yuragimni kaftimga olib tomosha qilgandek bo'laman. "Segoh" alamimga, sirqirab og'rigan jonimga o'xshaydur! Alg'ul yulduzini bilursan-a Ali.

Ali Qushchi: Filhaqiqat "Alg'ul" g'alatidir. Uch kun yonib, so'ngra so'nadi-da, yana paydo bo'lib, avvalgidek porlab turaveradi.

Ulug'bek: Ko'ksimdagi iztirob ana shu Alg'ulga o'xshaydur, Ali!... U goh so'nib qolgandek bo'ladi, so'ngra yana jonimda og'riq qo'zg'aydi... Kun kelib Alg'ulning mubham siri ayon bo'lgusidir... Ammo... ammo bu iztirob, bu og'riq siridan bexabar o'tishdan qo'rqaman."

"Alg'ul" dramasi xalq ijodiyotiga ham urg'ularni ko'rishimiz mumkin. Mana yuqoridagi diologda ham. Aslida bu kiritmalar dramadagi qahramon kayfiyatini aks ettirishga xizmat qiladi, obrazlarning ruhiy holati haqida ma'lum bir tasavvur berishga yordamlashuvchi omil hisoblanadi. "Segoh" asar avvalidanoq Ulug'bek obrazi orqali tilga olinadi va asar davomida takror va takror to'xtalib o'tiladi ("Ulug'bek: Ali, o'limni o'ylamoq undan qo'rqmoq emas, hayotni sevmuqdir. Inson "Segoh"ni yaratgan ekan, o'limni anglagandur... Ali, janazam o'qilgan payt, mabodo boshimda bo'lsang, ayt, "Segoh"ni aytsinlar...") yakunida esa "Segoh" sadolari ostida parda yopiladi.

Drama o'zigacha mavjud bo'lgan M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini inkor qilmaydi lekin uning bir qismi, davomi sifatida qarash ham bizningcha, o'rinsizdir. Sababi "Alg'ul" g'oyaviy-badiiy jihatdan ham, obrazlar tizimi bo'yicha ham deyarlik o'zgacha, yangi ma'lumotlarni o'zida to'laqonli shakllantira olgan asardir. Shuni aytish kerakki, Xurshid Davron Ulug'bek

harakteridagi eng muhim ijobiy fazilatlarni o'z me'yorida bo'rttirish bilan birga, undagi ojiz tomonlardan ham ko'z yummaydi. Ularni juda haqqoniy va holisona ko'rsatib, bosh qahramon obrazining hayotiy chiqqishiga erishgan. Mirzo Ulug'bek shaxsiyatiga xos adolatparvarlik fazilatlari asarning butun ruhiga singdirilgan. Mirzo Ulug'bekning hayot va saltanatdan ko'zlagan birdan-bir yagona maqsadi, davlat ishlaridagi asosiy siyosiy yo'limamlakatning butunligi, qudrati, fuqoroning osoyishtaligi, ilm-fan va ma'rifatning ravnaqi uchun kurashishdan iborat. Lekin ota sifatida farzandlari oldida ham shunchalik adolat qiloldimikan? Asarning yettinchi ko'rinishadigi ushbu dialogga e'tibor bering.

“Ulug'bek: Bas, Abdullatif, bas!.. Men hamisha agar biror inson hayoti nohaq qurbon bo'lishini bilsam, jonimni tikib bo'lsa ham uni qutqazib qolar edim! Taqdirni o'zgartirishga urinma, o'g'lim. Axir ikkimiz ham qismatimiz intihosini bilamiz-ku? Yulduzlar nimalarni bashorat qilganidan xabardorsan-ku?!. Ali!

(Qorong'ilikda Ali Qushchining yuzi yorishadi.) Esingdamu, Ali, Buxoroda keksa darvesh aytgan so'zlar? O'shanda men qachondir shahid ketajagimdan xabardor edim. Ammo bu chol bundan bexabar, uning ko'zlari so'qir – yulduzlarni ko'rolmasdi... Chol aytdiki:

Ali Qushchi: Chol aytdiki: «Sen shahid bo'lajaksan!» Siz so'ratingizki: «Meni kim o'ldirur?» Ul so'qir darvesh aytdiki: «Sheruya!»

Ulug'bek: O'shanda sen hali tug'ilmagan eding Abdullatif... Sendan oldin uch o'g'il ko'rdim. Ikkisi erta nobud bo'ldi. Keyin Abdurahmon...

Abdulatif: Sho'rlik Abdurahmon o'n ikki yil umr ko'rdi. O'n ikki yil shubha ostida yashadi. Keyin men dunyoga keldim. Men ham shubha ostiga qoldim...

Ulug'bek: Yo'q, o'g'lim, yo'q, bunday emas!

Abdulatif: Bechora Abdurahmon olamdan o'tganda, uning boshida o'kirib-o'kirib yig'ladingiz. Siz yulduzlar bashorat qilgan jinoyat Abdurahmondan bo'lmasligiga uning o'limi tufayli ishongach, juvonmarg bolangizdan mehr-u muhabbatingizni ayaganingiz uchun yig'lamadingizmu, otajon?

Ulug'bek: Yo'q, bolam, yo'q, bunday emas... Men Abdurahmonni behad suyardim!

Abdulatif: O'shanda men murg'ak go'dak edim. Ko'p narsaga fahmim yetmasdi. Ammo siz sho'rlik inim jasadi ustida yig'lar ekansiz, menga boqqan ko'zlaringizda vahima ko'rib, murg'ak yuragim dahshat tuygan edi... Keyin Abdullaziz dunyoga keldi. Abdurahmonning o'limi sabab bo'ldimi, siz undan mehr-muruvvatingizni ayamadingiz.

Ulug'bek: Yo'q, o'g'lim, unday emas... unday emas...

Abdulatif: Tug'ilgan onimdan qaro bashorat la'nati ostida yashadim. Bolaligimdayoq qismatimdan o'kindim. Keyin meni onangizga topshirdingiz, huzuringizdan uzoqqa – Hirotga jo'natdingiz. Taqdirning qaro yozug'ini qarangi, sizni tuqqan volidangiz, mening bibim kecha-yu kunduz meni sizga qayradi.

Ulug'bek: Oh, malika onamiz Surayyo yulduzidek beomon edilar!

Abdulatif: Ammo men sizni behad suyardim, bor vujudim ila sizga intilardim! Inimning boshini silagan qo'lingiz bilan mudom mani ko'ksimdan itardingiz!

Ulug'bek: Men ham seni suyardim, o baxtiqaro farzandim!

Abdulatif: Munajjimlaringiz tinmay qulog'ingizga shipshidi: «Sizning kushandangiz shu o'g'lingiz!» «Zinhor yaqin yo'latmang!» deb shipshidi folchilaringiz! Kechir kufrimni, ey Xudoyim, oxir men o'zim bu so'zlarga ishona boshladim. O'zimni ishontira boshladim bu so'zlarga, siz meni ishontirdingiz bu so'zlarga!

Ulug'bek: Hasrating menikidan ham og'ir ekan-ku, bolam!"

Shunday qilib, Ulug'bekning dunyoqarashi, siyosiy va ilmiy faoliyatidagi bu xil ijobiy va salbiy ko'rinishlar; bir tomondan odil va ma'rifatparvar shoh; ikkinchi tomondan eng yirik feodal; bir tomondan diniy aqidalarga ishonadi va davlat yuritish ishlarida unga amal qiladi; ikkinchi tomondan – o'z ilmiy – tadqiqot va kashfiyotlari bilan haquq nohaq, islomiy e'tiqodlarning ildiziga bolta uradi; bir tomondan adolatsiz urushlarga qarshi chiqib, el-yurt osoyishtaligini qo'riqlaydi; ikkinchi tomondan esa unga qarshi qo'zg'alon ko'targan qabilalarni shavqatsiz bostiradi. Binobarin, Ulug'bek shaxsiyati, dunyoqarashi va faoliyatidagi bir-biriga zid, bir-biriga qarama-qarshi qutblarning mavjudligi, bu obrazning g'oyatda murakkab xususiyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ana shunday murakkab jihatlarni chuqur anglagan muallif, Ulug'bek obrazining barcha ijobiy va salbiy, qudratli va zaif, ilg'or qarashlar va fikriy mahdudlik sifatlarini olim yashagan ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'langan holda to'la-to'kis namoyon qilishga erishgan.

Xulosa shuki, "Alg'ul"da insonning aqliy qudrati, ma'naviy go'zalligi, yuksak bashariy orzularning ulug'vor tantanasi kuylangan. Shuning uchun ham "Alg'ul" milliy dramaturgiyamizning eng sara asarlari sirasidan munosib o'rin egalladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: "Akademnashr", 2010. B.95
2. O'zbek adiblari S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016
3. Samarqand xayoli. X. Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1995.
4. Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston. X. Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyotmatbaakonsernining bosh tahririyati, 1990.